

MEHNAT MIGRANTLARINI IJTIMOYIY HIMOYALASH VA ULARNI JAMIYATGA QAYTA INTEGRATSIYA QILISH MEXANIZMLARI

Akmuratov Otamurod Bobomurod o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20799141>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasidagi mehnat migratsiyasi jarayonlari, migrantlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi va ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish masalalari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy e'tibori mehnat migrantlari uchun majburiy sug'urta tizimini joriy etishning zaruriyatiga qaratilgan. Maqolada xalqaro huquqiy normalar, xususan Palermo protokoli talablari va milliy qonunchilikdagi islohotlar o'rtasidagi bog'liqlik yoritib beriladi. Statistik ma'lumotlar va mavjud muammolar asosida migrantlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy xavflardan himoya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, ijtimoiy himoya, majburiy sug'urta, reintegratsiya, Palermo protokoli, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, repatriatsiya, iqtisodiy barqarorlik.

Globalashuv jarayonlari sharoitida aholining xalqaro miqyosdagi harakatlanishi, ya'ni mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi nafaqat aholi bandligini ta'minlash, balki mamlakatga xorijiy valyuta oqimini olib kiruvchi muhim omillardan biridir.

Iqtisodiy jihatdan olganda, 2024-yilning dastlabki o'n oyi davomida O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmi **12,6 milliard AQSh dollarini** tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 34 foizga oshganini ko'rsatadi. Pul o'tkazmalarining asosiy qismi Rossiya (\$ 699 mln) va AQSh (\$470 mln) kabi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu raqamlar mehnat migratsiyasining mamlakat makroiqtisodiy barqarorligidagi o'rni qanchalik yuqori ekanligini isbotlaydi¹.

2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi sezilarli darajada oshib, 18,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi².

Ushbu ko'rsatkichning Yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati quyidagicha baholanmoqda: YaIMdagi ulushi: 2025-yilda migrantlar o'tkazmalari O'zbekiston YaIMning taxminan 13-14 foizdan ortig'ini tashkil etdi. Aholi daromadlari: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, pul o'tkazmalarining aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 2025-yil yakuni bo'yicha 16,5 foizdan 21 foizgacha ko'tarilgan. O'sish dinamikasi: 2025-yilda pul o'tkazmalari hajmi 2024-yilga nisbatan 27,2 foizga ko'p bo'lib, Markaziy bankning dastlabki prognozlaridan (15-18 foiz) ancha yuqori bo'ldi³.

Manbalarga ko'ra, mehnat migrantlari — bu doimiy yashash joyini vaqtincha tark etib, boshqa davlatda daromad topish maqsadida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslardir. Ularning asosiy maqsadi o'z oilasini moddiy qo'llab-quvvatlash va hayot sharoitini yaxshilashdan iborat⁴.

Biroq, migratsiya oqimlarining kengayishi bilan birga migrantlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash va vataniga qaytganidan so'ng jamiyatga integratsiya qilish kabi dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, xorijda baxtsiz hodisalar, kasalliklar yoki vafot etish holatlarida migrantlarning oilalari iqtisodiy jihatdan juda og'ir ahvolga

¹ <https://stat.uz/>

² <https://spot.uz>

³ <https://kun.uz>

⁴ <https://www.wikipedia.org>

tushib qolmoqda⁵. Shu sababli, ushbu maqolada mehnat migrantlarini tizimli himoya qilishning eng samarali vositasi sifatida **majburiy sug'urta** mexanizmini joriy etish masalasi ilmiy va huquqiy jihatdan tadqiq etiladi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistondan mehnat migranti sifatida xorijga ketganlar soni taxminan ikki million kishini tashkil etdi⁶. Gender tarkibiga ko'ra, ularning 72,4 foizi erkaklar (1 452 300 kishi) va 27,6 foizi ayollar (547 700 kishi) hisoblanadi⁷.

Migratsiya yo'nalishlari bo'yicha asosiy ulush Rossiya Federatsiyasiga (60%) to'g'ri kelsa-da, so'nggi yillarda geografiya kengayib bormoqda: Rossiya: 1,2 million kishi; Qozog'iston: 191,8 ming kishi (10%); Turkiya: 113,8 ming kishi (6%); Janubiy Koreya: 68,1 ming kishi (3%).



Migrantlarning bandlik sohalari tahlil qilinganda, eng katta ulush **qurilish sohasiga** (52,7%) to'g'ri kelishi aniqlangan. Shuningdek, sanoat (12,8%), xizmat ko'rsatish (9,7%) va umumiy ovqatlanish (6,9%) sohalarida ham o'zbekistonliklar faol mehnat qilmoqda⁸.

Mehnat migratsiyasi zamonaviy global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u nafaqat fuqarolarning xorijda ishlashi, balki ularning vataniga qaytishi va jamiyatga qayta integratsiyalashuvi jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya jarayoni “ketish va ishlash” bilan tugamaydi, balki migrantlarning orttirgan tajribasi, malakasi va moliyaviy resurslarini milliy iqtisodiyotga yo'naltirish bosqichi bilan yakunlanadi. Bu jarayon reintegratsiya deb ataladi va u mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonga yuz minglab migrantlar qaytib kelgan bo'lib, bu jarayon mehnat bozorida yangi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Qaytib kelgan migrantlarni samarali reintegratsiya qilish uchun bir qator tizimli chora-tadbirlar zarur. Birinchidan, ularning xorijda olgan kasbiy malakalarini tan olish va sertifikatlash tizimini rivojlantirish muhimdir. Bu ularning mehnat bozoriga tez va samarali moslashishiga yordam beradi.

⁵ <https://www.ilo.org>

⁶ <https://www.migration.uz>

⁷ <https://www.migration.uz>

⁸ <https://stat.uz/>

Ikkinchidan, qaytgan migrantlarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish mumkin. Buning uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va biznesni boshlash bo'yicha davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, migrantlar tomonidan xorijda orttirilgan ko'nikmalarni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish, ya'ni ularning bilim va tajribasidan foydalanish mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshiradi⁹.

Migrantlarning huquqlari nafaqat milliy, balki xalqaro norma va konvensiyalar bilan ham himoya qilinadi. Bu borada **Palermo protokoli** (2000-yil) muhim ahamiyatga ega bo'lib, u odam savdosiga, ayniqsa ayollar va bolalarni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurashishning global huquqiy asosidir. Ushbu protokol a'zo davlatlarni jabrlanuvchilarni himoya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga majbur qiladi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasida esa Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ushbu sohadagi vakolatli organ bo'lib, u migrantlarga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, agentlik tomonidan 7 992 nafar migrantga huquqiy, 10 951 nafariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Agentlikning Rossiya Federatsiyasidagi 16 ta vakolatxonasi va ko'plab hamkor advokatlik idoralari migrantlar huquqlarini sud tartibida himoya qilib kelmoqda. Misol uchun, ish jarayonida jarohat olgan bir fuqaroga 700 ming rubldan ortiq kompensatsiya undirib berilgan. Biroq, statistikaga ko'ra, 2023-yilda jami chiqib ketgan migrantlarning atigi 16,5 foizi qonuniy kanallardan foydalangan. Bu esa noqonuniy migratsiya va uning ortidan kelib chiqadigan huquqsizlik muammolarini (ish haqini bermaslik, hujjatlarni olib qo'yish, og'ir mehnat sharoitlari) keltirib chiqarmoqda¹¹. Bu mehnat migrantlari uchun qulayliklar yaratadi.

Hozirgi kunda sug'urtasiz migrantlar duch kelayotgan muammolar tizimli xarakterga ega:

Vafot etish holatlari: Jasadni olib kelish xarajatlari miqdori Rossiya Federatsiyasida 1000 AQSH dollarigacha, Agliyada 4000-5000 AQSH dollarigacha, Koreya va Yaponiyada esa 9000 AQSH dollarigacha yetgan¹².

Sog'liqqa yetgan zarar: Qurilish va sanoat sohalarida jarohat olish xavfi yuqori bo'lib, sug'urtasiz migrantlar ko'pincha davolanish xarajatlarini qoplay olmaydi.

Deportatsiya: Noqonuniy holatlarda deportatsiya xarajatlari va huquqiy yordamning yo'qligi migrantni chorasiz qoldiradi¹³.

Sug'urta tizimining joriy etilishi nafaqat migrantni himoya qiladi, balki davlat byudjetiga tushadigan yukni ham kamaytiradi. Chunki hozirda og'ir ahvoldagi migrantlarni qaytarish ko'p hollarda davlat jamg'armalari yoki xayriya hisobidan amalga oshirilmoqda. Majburiy sug'urta — bu migratsiya risklarini boshqarishning zamonaviy va sivilizatsiyalashgan usulidir¹⁴.

Mehnat migratsiyasi bugungi globallashuv sharoitida O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. U mamlakatga valyuta tushumlari, mehnat bozori bosimini kamaytirish va aholi bandligini ta'minlash kabi muhim foydalar keltiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon migrantlarning ijtimoiy himoyasi yetarli darajada ta'minlanmagan hollarda jiddiy muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Xususan, sug'urta tizimining sustligi, noqonuniy migratsiya ulushining yuqoriligi va favqulodda holatlarda davlat zimmasiga tushadigan moliyaviy yuklar ushbu sohadagi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda¹⁵.

⁹ <https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/intro/UNTOC.html>

¹⁰ <https://www.refworld.org/legal/agreements/>

¹¹ <https://gov.uz/en/migration/pages/>

¹² <https://gazeta.uz>

¹³ <https://www.globalcitizen.org/>

¹⁴ <https://www.weforum.org/organizations/>

¹⁵ <https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration/lang--en/index.htm>

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, mehnat migrantlarining eng zaif jihatlaridan biri ularning ijtimoiy va huquqiy himoya mexanizmlariga to'liq qamrab olinmaganligidir. Ayniqsa, sug'urta tizimining mavjud emasligi yoki yetarli darajada ishlamasligi migrantlarni kasallik, jarohat, o'lim yoki deportatsiya kabi xavflar oldida himoyasiz qoldiradi. Shu sababli zamonaviy migratsiya siyosatida sug'urta mexanizmlari markaziy o'rin egallamoqda¹⁶.

So'nggi yillarda Qatar mehnat migratsiyasi, ishchilar huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tub islohotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, 2022-yilgi FIFA World Cup Qatar 2022 arafasida xalqaro bosim va ichki ehtiyojlar natijasida mamlakat mehnat qonunchiligida tizimli o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu tajriba Uzbekistan uchun ham muhim qiyosiy model bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki ikki davlatda ham mehnat migrantlari masalasi dolzarb hisoblanadi.

Birinchii muhim yo'nalish — majburiy tibbiy sug'urta tizimidir. Qatar Respublikasining Law No. 22 of 2021 qonuniga ko'ra, mamlakatdagi barcha chet ellik xodimlar uchun sog'liqni saqlash sug'urtasini ish beruvchi o'z mablag'i hisobidan rasmiylashtirishi shart. Mazkur qonun ishchilarning tibbiy xizmatlardan foydalanishini kafolatlaydi hamda sug'urta xarajatlarini bevosita ish beruvchiga yuklaydi. Bu tizim migrant zimmasiga ortiqcha moliyaviy yuk tushishini kamaytiradi va ishchi mehnat bozoriga kirishdan oldin himoya vositasiga ega bo'lishini ta'minlaydi¹⁷.

Ikkinchi muhim mexanizm — Workers' Support and Insurance Fund (Ishchilarni qo'llab-quvvatlash va sug'urta jamg'armasi) jamg'armasi 2018-yilda Law No. 17 of 2018 asosida tashkil etilgan bo'lib, ish beruvchi ish haqini to'lamagan, bankrot bo'lgan yoki mehnat nizosi yuzaga kelgan holatlarda ishchilarning qarzidor maoshlarini qoplash vazifasini bajaradi. Bu tizim oddiy sud himoyasidan ko'ra samaraliroq, chunki unda moliyaviy kompensatsiya mexanizmi oldindan shakllantirilgan. Natijada migrant ishchi yillar davomida sud qarorini kutib qolmaydi¹⁸.

O'zbekiston amaliyoti bilan taqqoslanganda, respublikada migrantlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tashkiliy choralar mavjud bo'lsa-da, sug'urta xarajatlari ko'pincha migrantning o'z zimmasiga yuklanadi yoki davlat ko'magi bilan cheklanadi. Repatriatsiya, ya'ni vafot etgan yoki og'ir ahvolga tushgan fuqaroni vatanga qaytarish masalasida ham amaliy muammolar saqlanib qolmoqda. Qatar tajribasi esa ushbu majburiyatlarni ish beruvchi va maxsus fond zimmasiga yuklash orqali tizimli kafolat yaratgan.

Mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, qonunchilik darajasida majburiy sug'urta tizimini joriy etish zarur. Chet elga ishlash uchun ketayotgan har bir fuqaro uchun minimal sug'urta paketi majburiy etib belgilanishi lozim. Bu paket migrantning hayoti, sog'lig'i va favqulodda holatlardagi (repatriatsiya, jarohat, kasallik) xarajatlarini qoplashni kafolatlaydi. XMT tavsiyalariga ko'ra, bunday tizim migrant huquqlarini himoya qilishning eng samarali vositalaridan biridir.

Shu bilan birga, shuningdek, bundan tashqari keng qamrovli axborot kampaniyalari yo'lga qo'yilishi. Aholini sug'urtaning afzalliklari, noqonuniy migratsiya xavflari va repatriatsiya xarajatlarining og'ir moliyaviy oqibatlari haqida muntazam ravishda xabardor qilish muhimdir.

¹⁶ <https://www.iom.int/return-and-reintegration>

¹⁷ <https://p4h.world/ru/news/>

¹⁸ <https://wsif.gov.qa/>

Xalqaro Migratsiya Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning katta qismi xavflar haqida yetarli bilimga ega emasligi sababli norasmiy kanallarni tanlaydi.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. O'zbekiston va asosiy qabul qiluvchi davlatlar — Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya kabi mamlakatlar o'rtasida sug'urta polislarini o'zaro tan olish va huquqiy himoya mexanizmlarini uyg'unlashtirish bo'yicha hukumatlararo kelishuvlar tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu migrantlar huquqlarini xalqaro darajada kafolatlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Sug'urta polislarini, mehnat shartnomalarini va migrantlar reyestrini yagona elektron platformaga integratsiya qilish orqali jarayonlar shaffofligi ta'minlanadi hamda noqonuniy migratsiya darajasi kamayadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, raqamli boshqaruv tizimlari migratsiya sohasida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migrantlarini kompleks ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish O'zbekiston uchun strategik zaruratdir. Majburiy sug'urta, axborot siyosati, xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish mexanizmlarining uyg'un joriy etilishi migrantlarning insoniy qadriyatini himoya qilishga, ularning oilalarining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://www.wikipedia.org>
2. ² <https://www.ilo.org>
3. ³ <https://www.migration.uz>
4. ⁴ <https://www.migration.uz>
5. ⁵ <https://stat.uz/>
6. ⁶ <https://stat.uz/>
7. ⁷ <https://www.refworld.org/legal/agreements/>
8. ⁸ <https://gov.uz/en/migration/pages/>
9. ⁹ <https://www.globalcitizen.org/>
10. ¹⁰ <https://www.weforum.org/organizations/>
11. ¹¹ <https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/intro/UNTOC.html>
12. ¹² <https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration/lang--en/index.htm>
13. ¹³ <https://www.iom.int/return-and-reintegration>
14. ¹⁴ <https://p4h.world/ru/news/>
15. ¹⁵ <https://wsif.gov.qa/>
16. ¹⁶ <https://spot.uz>
17. <https://kun.uz>